



ELEKTRON HISOB-FAKTURALAR TIZIMI VA SOLIQ XAVFINI BOSHQARISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Jurayev Axmad

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ORCID: 0009-0005-8233-6708

jorayevahmad446@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligida elektron hisob-fakturalar (EHF) tizimining rolini va soliq xavfini aniqlash mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda EHF orqali to'plangan raqamli ma'lumotlar tahlili, risk indikatorlari asosida soliq to'lovchilarning xavf darajasini aniqlash, viloyatlar kesimida tovar aylanmasi va yirik soliq to'lovchilar faoliyatini kuzatish amaliyoti tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, EHF tizimi soliq auditi samaradorligini oshirish, soliqqa rioya etish darajasini yaxshilash va soliq ma'muriyatchiligini optimallashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot shuningdek, EHF tizimining soliq to'lovchilar uchun afzalliklarini, jumladan moddiy va inson resurslarini tejash, QQS hisoblashdagi xatolarni kamaytirish va hisobotlarni avtomatlashtirish imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: elektron hisob-faktura, soliq xavfi, raqamli soliq nazorati, risk indikatorlari, soliq ma'muriyatchiligi.

СИСТЕМА ЭЛЕКТРОННОГО ВЫСТАВЛЕНИЯ СЧЕТОВ И УПРАВЛЕНИЕ НАЛОГОВЫМИ РИСКАМИ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

Джурсаев Ахмад

Денауский институт предпринимательства и педагогики

Аннотация. Данная статья посвящена изучению роли системы электронных счет-фактур (EHF) и механизмов определения налогового риска в налоговом администрировании Узбекистана. В исследовании проанализированы цифровые данные, собранные через EHF, оценка уровня риска налогоплательщиков на основе риск-индикаторов, а также практическое наблюдение за оборотом товаров и деятельностью крупных налогоплательщиков по регионам. Результаты показывают, что система EHF является важным инструментом для повышения эффективности налогового аудита, улучшения соблюдения налогового законодательства и оптимизации налогового администрирования. Исследование также подчеркивает преимущества системы EHF для налогоплательщиков, включая экономию материальных и человеческих ресурсов, сокращение ошибок при расчете НДС и автоматизацию отчетности.

Ключевые слова: электронный счет-фактура, налоговый риск, цифровой налоговый контроль, риск-индикаторы, налоговое администрирование.

ELECTRONIC INVOICE SYSTEM AND TAX RISK MANAGEMENT: THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

Jurayev Akhmad

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. *This article is dedicated to the study of the role of the electronic invoicing (EHF) system and tax risk assessment mechanisms in tax administration in Uzbekistan. The research analyzes digital data collected through EHF, the assessment of taxpayers' risk levels based on risk indicators, and the practical monitoring of turnover and activities of large taxpayers across regions. The results indicate that the EHF system is a crucial tool for enhancing tax audit efficiency, improving tax compliance, and optimizing tax administration. The study also highlights the benefits of the EHF system for taxpayers, including savings in material and human resources, reducing errors in VAT calculation, and automating reporting processes.*

Keywords: *electronic invoice, tax risk, digital tax control, risk indicators, tax administration.*

Kirish.

So'nggi yillarda soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish va soliqqa rioya etishni kuchaytirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Xorijiy tadqiqotlar elektron hisob-fakturalarning (e-invoicing) soliq auditi samaradorligini oshirish, soliqqa rioya etish va soliq xavflarini aniqlashdagi ahamiyatini nazariy va empirik jihatdan tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham EHF tizimining milliy soliq tizimiga integratsiyasi, QQS islohotlari va raqamli texnologiyalarning soliq ma'muriyatchiligiga ta'siri tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-sentabrdagi farmoni bilan joriy etilgan PF-153-sonli «Elektron hisob-fakturalarni xavf asosida baholash tizimini joriy etish» tadbiri davlat soliq boshqaruvini dinamik tizimga aylantirishga yo'naltirilgan muhim normativ hujjat bo'lib, unda har bir elektron hisob-faktura real vaqt rejimida risk darajasi bo'yicha baholanadi va "qizil" yoki "yashil" maqomiga ega bo'ladi. Bu mexanizm soliq nazoratini avtomatlashtirish, soha sub'yektlari o'rtasida shaffoflikni oshirish hamda noto'g'ri yoki soxta hujjatlarni aniqlash imkonini yaratadi (Farmon, 2025).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2026-yil 5-yanvarda elektron hisob-fakturalarning xavf darajasini aniqlash tartibi bo'yicha nizomni tasdiqlagan, bu hujjat EHFlar bo'yicha riskni baholash mexanizmini va soliq nazorat choralarini tartibga solidi (Nizom, 2025).

Elektron hisob-faktura tizimi soliq organlariga real vaqt rejimida to'plangan moliyaviy ma'lumotlar asosida soliq xavfini aniqlash, yuqori xavfli soliq to'lovchilarni belgilash va soliq auditi yo'naltirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, EHF tizimi soliq xavfini boshqarish va raqamli soliq nazoratini amalga oshirishning markaziy elementi sifatida qimmatli vosita hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda soliq xavfini aniqlash mexanizmlari, risk indikatorlari va elektron hisob-fakturalar tizimining amaliy afzalliklari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, xususan elektron hisob-fakturalar (e-invoicing) tizimini joriy etish masalalari jahon va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinmoqda.

Kotsogiannis va boshq. (2024) tadqiqotida e-hisob-fakturalarning soliq auditi samaradorligini oshirish, QQS bo'yicha majburiyatlarga rioya etishni rag'batlantirish hamda soliq qonunbuzarliklarini kamaytirishdagi roli empirik asosda tahlil qilingan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, elektron hisob-fakturalar orqali shakllangan raqamli ma'lumotlar bazasi audit

jarayonini tezkor va aniq qilishga imkon beradi, shu bilan soliq tushumlarini oshirishga yordam beradi.

Hesami va boshq. (2024) e-invoicing va oldindan to'ldirilgan soliq deklaratsiyalarining soliq ma'muriyati va soliqqa rioya etish jarayonlariga ta'sirini tizimli tarzda o'rganadi. Mualliflar tadqiqotida bu texnologiyalar soliq organlari uchun ma'lumotlarning shaffofligini oshiradi, nazoratni avtomatlashtiradi va ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi.

Caillahua va boshq. (2025) tadqiqoti elektron hisob-fakturalar va soliqqa rioya qilish (tax compliance) o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy adabiyotlar asosida tizimli ravishda tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari e-hisob-fakturalar firibgarlikni kamaytirish, ma'muriy va byurokratik xarajatlarni qisqartirish orqali soliq majburiyatlariga rioya etishni kuchaytirishini ko'rsatadi.

Aipova (2024) O'zbekistonda QQS islohotlari va e-hisob-fakturalar tizimining joriy etilishi hamda ularning amaliy muammolari tahlil qilinadi. Muallif elektron hisob-fakturalarning soliq jarayonlariga integratsiyasi soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishi bilan birga, texnik va institutsional qiyinchiliklarni ham yuzaga keltirayotganini qayd etadi.

Raxmonqulov (2024) tadqiqotida soliq ma'muriyligida zamonaviy texnologiyalar, jumladan e-hisob-fakturalar, onlayn nazorat mexanizmlari va raqamlashtirish jarayonlarining ahamiyati tahlil qilingan. Muallif raqamli texnologiyalar soliq bazasini kengaytirish, soliq to'lovchilar faoliyati ustidan monitoringni kuchaytirish hamda soliq xavflarini aniqlash imkoniyatlarini oshirishini ta'kidlaydi.

Mazkur tadqiqotlar jahon va mahalliy adabiyotlarda elektron hisob-fakturalar orqali soliq xavflarini aniqlash va soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini tartibga solish mexanizmlarini chuqurroq o'rganish zaruratini ko'rsatib, ushbu maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Elektron hisob-faktura (e-invoicing) tizimining joriy etilishi soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda soliq organlari soliq xavfini aniqlash va boshqarish uchun katta hajmdagi raqamli ma'lumotlardan foydalanmoqda, bu esa soliq auditi samaradorligini oshirish va soliqqa rioya etish darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Elektron hisob-fakturalar orqali to'plangan ma'lumotlar tahlili viloyatlar kesimida tovar aylanmasi darajasini aniqlash, yirik soliq to'lovchilar faoliyatini kuzatish va soliq xavfi yuqori bo'lgan subyektlarni belgilash imkonini beradi. Shuning uchun soliq xavfini aniqlash mexanizmlarini o'rganish - nafaqat soliq auditi samaradorligi nuqtayi nazaridan, balki umumiy soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlash uchun ham dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 7-yanvarda "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida" nizomi ishlab chiqildi va unga ko'ra, soliq xavfi - budget tizimiga soliq va yig'imlar to'lanmasligi yoki to'liq to'lanmasligiga olib kelishi mumkin bo'lgan, soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan soliq majburiyatlarini bajarmaslik yoki to'liq bajarmaslik ehtimoli (Qaror, 2021). Boshqacha qilib aytganda, bu soliq to'lovchining soliq majburiyatlariga to'liq, haqqoniy va qonuniy ravishda rioya etmaslik ehtimoli bilan bog'liq potentsial salbiy holatlar majmuasi bo'lib, soliq qonunbuzarliklarining yuzaga kelishi, noto'g'ri yoki vaqtida to'lanmagan soliqlar natijasida soliq organlari tomonidan moliyaviy va huquqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchilikni ifodalaydi. Soliq xavfi soliq ma'muriyatchiligi jarayonida aniqlanishi va boshqarilishi lozim bo'lgan tavakkalchiliklarni belgilab beradi hamda auditorlik, nazorat va nazariy baholash instrumentlari orqali kamaytiriladi.

Soliq xavfini aniqlash va baholash jarayoni O'zbekiston Respublikasida belgilangan mezonlar asosida amalga oshiriladi. Amaldagi tartibga muvofiq, soliq xavfi darajasi soliq xavfi mezonlari bo'yicha 1 dan 100 gacha bo'lgan ballar asosida hisoblanadi. Mazkur ballar Davlat soliq qo'mitasi tomonidan soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha segmentlanishi hamda soliq davrida olingan daromad hajmiga qarab belgilanadi. Ushbu yondashuv soliq to'lovchilar faoliyatini obyektiv baholash va potensial soliq xavflarini aniqlashga xizmat qiladi.

Soliq to'lovchilarning xavf darajasi maxsus axborot dasturi orqali aniqlanib, belgilangan mezonlar bo'yicha to'plangan ballar va potensial soliq xavfi asosida baholanadi hamda toifalarga ajratiladi. Soliq xavfi darajasi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$R = (S_r / S_p) \times 100\%,$$

bu yerda R — soliq xavfi darajasi (foizda), S_r — soliq to'lovchiga berilgan xavf ballari yig'indisi, S_p esa xavf darajasini aniqlashda qo'llanilgan potensial soliq xavfi ballari yig'indisini anglatadi. Baholash natijalari yuqoridan kamayish tartibida shakllantirilib, teng ko'rsatkichlar yuzaga kelganda to'lanmagan soliq summasi ehtimoli asosida ustuvorlik belgilanadi.

Mazkur hisob-kitoblar asosida soliq to'lovchilar uch toifaga ajratiladi: 81–100 foiz oralig'ida — yuqori xavfli, 30–80 foiz oralig'ida — o'rta xavfli, 1–29 foiz oralig'ida esa — past xavfli soliq to'lovchilar. Soliq xavfi darajasi yuqori bo'lgan subyektlarga nisbatan soliq auditi tayinlanadi, o'rta va past xavf toifasiga kiruvchi soliq to'lovchilarga esa Soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa soliq ma'muriyatchiligi choralari qo'llash orqali nazorat amalga oshiriladi. Ushbu riskga asoslangan yondashuv soliq nazoratini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va soliq xavfini o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Amaliyotda soliq xavfini aniqlashda shakllantiriladigan ballar tizimi, avvalo, elektron hisob-fakturalar (e-hisob-faktura) orqali to'plangan ma'lumotlar bazasiga tayanadi. E-hisob-faktura tizimi soliq organlariga soliq to'lovchilarning tovar aylanmasi, qo'shilgan qiymat solig'i majburiyatlari, kontragentlar o'rtasidagi operatsiyalar hamda real iqtisodiy faoliyat hajmini raqamli shaklda kuzatish imkonini beradi. Aynan ushbu ma'lumotlar soliq xavfi mezonlarini aniqlashda asosiy axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi.

E-hisob-fakturalar orqali shakllanadigan raqamli ma'lumotlar asosida soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyati segmentlanadi, daromad hajmi va operatsiyalar intensivligi baholanadi hamda potensial soliq xavfi ballari hisoblanadi. Natijada, soliq xavfi darajasini aniqlash formulasi orqali hisoblangan ko'rsatkichlar real moliyaviy oqimlar bilan uyg'unlashib, subyektiv baholash ehtimolini kamaytiradi. Bu esa soliq xavfini aniqlash jarayonining aniqligi va ishonchliligini oshiradi.

E-hisob-faktura tizimi asosida soliq xavfini aniqlash jarayoni amaliyotda risk indikatorlari orqali amalga oshiriladi. Risk indikatorlari soliq to'lovchilarning elektron hisob-fakturalarida aks etgan ma'lumotlar asosida shakllanadigan, soliq qonunchiligiga rioya etilmasligi ehtimolini ko'rsatuvchi mezonlar majmuasidir. Ushbu indikatorlar soliq organlariga potentsial xavfli operatsiyalarni erta bosqichda aniqlash va ularni avtomatik ravishda tahlil qilish imkonini beradi.

Maqolamizda risk indikatorlari jadvalini shakllantirganmiz (1-jadval) va u O'zbekiston Respublikasida soliq xavfini aniqlash va baholash tizimini tartibga soluvchi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan nizom talablari, Davlat soliq qo'mitasining elektron hisob-fakturalar asosida olib boriladigan amaliy soliq nazorati tajribasi hamda xorijiy ilmiy adabiyotlarda e-invoicing va riskka asoslangan soliq nazorati bo'yicha bildirilgan nazariy yondashuvlar sintezi asosida ishlab chiqilgan.

Risk indikatorlari bo'yicha jadval

№	Risk mezon	Tavsif	Xavf darajasi	Amalga oshirish chorasi
1	Noto'g'ri QQS stavkasi	QQS stavkasi noto'g'ri kiritilgan	Yuqori	Tekshirish va QQS faqat to'langanidan keyin hisobga olish
2	Takroriy EHF	Bir xil faktura qayd qilingan	O'rta	Qo'shimcha tekshiruv
3	Katta summa farqi	Faktura summasi tarixiy o'rtacha qiymatdan yuqori	Yuqori	Avtomatik tekshiruv va risk ko'rsatkichini oshirish
4	Kechikkan yuborilgan EHF	Faktura taqdim etish muddati kechikgan	O'rta	Soliq organi xabardorligi va tekshiruv
5	Past xavfli EHF	Ma'lumotlar mos va xatolik yo'q	past	Avtomatik tasdiqlash

Manba: muallif tomonidan tadqiqot materiallari asosida tuzilgan.

Risk indikatorlari bo'yicha shakllantirilgan jadval elektron hisob-fakturalar (EHF) asosida soliq xavfini aniqlash mexanizmining amaliy ko'rinishini ifodalaydi. Jadvalda keltirilgan mezonlar soliq organlari tomonidan EHF ma'lumotlarini avtomatik tahlil qilish orqali aniqlanadigan asosiy risk holatlarini qamrab oladi. Har bir risk mezon soliq to'lovchining QQS majburiyatlarini bajarish darajasi va potentsial soliq yo'qotish ehtimoli nuqtai nazaridan baholangan.

Jadvalga ko'ra, noto'g'ri QQS stavkasining qo'llanilishi va faktura summasining tarixiy o'rtacha ko'rsatkichlardan keskin yuqori bo'lishi yuqori xavf darajasiga ega mezonlar sifatida ajratilgan. Ushbu holatlar soliq tushumlariga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi sababli, ular bo'yicha avtomatik tekshiruvlar va soliq auditiga yo'naltirish choralari qo'llash nazarda tutiladi. Takroriy yoki kechikib yuborilgan elektron hisob-fakturalar esa o'rta xavf darajasida baholanib, qo'shimcha tekshiruv va soliq organlarining xabardorligini oshirish orqali nazorat qilinadi.

Shu bilan birga, barcha ma'lumotlari mos keladigan va xatoliklar aniqlanmagan elektron hisob-fakturalar past xavf toifasiga kiritilib, ular bo'yicha avtomatik tasdiqlash mexanizmi qo'llaniladi. Bu yondashuv soliq nazoratini riskga asoslangan tarzda tashkil etish, yuqori xavfli operatsiyalarga e'tiborni kuchaytirish va soliq organlari resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Natijada, elektron hisob-faktura tizimi soliq xavflarini aniqlash va boshqarishda muhim analitik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shu tariqa, e-hisob-faktura tizimi soliq xavfini aniqlashning faqat texnik vositasi emas, balki riskka asoslangan soliq nazoratini amalga oshirishning markaziy elementi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizim soliq organlariga yuqori xavfli soliq to'lovchilarni aniqlash va soliq auditini aniq yo'naltirish, o'rta va past xavfli subyektlarga nisbatan esa ma'muriy choralarni optimallashtirish imkonini beradi. Natijada soliq ma'muriyatchiligi samaradorligi oshib, soliq xavflarini barvaqt aniqlash mexanizmi shakllanadi.

Elektron hisobvara-fakturalar soliq ma'muriyatchiligida nazorat funksiyasini kuchaytiruvchi raqamli instrument sifatida xizmat qiladi. Ular orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi bitimlar elektron shaklda rasmiylashtiriladi, ma'lumotlar avtomatik tekshiruvdan o'tkaziladi hamda soliq xavflarini erta bosqichda aniqlash imkoniyati yaratiladi. Mazkur jarayonning samaradorligi elektron hisobvara-fakturalarni shakllantirishdan boshlab ulardan foydalanishgacha bo'lgan barcha bosqichlarning aniq tartibga solinganligi bilan bevosita bog'liq. Shu munosabat bilan, elektron hisobvara-fakturalar aylanishi mexanizmini bosqichlar kesimida tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
1-bosqich	Tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) sotuvchi	EHFni shakllantirish hamda sotib oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanib operator orqali rouming operatoriga yuborish.	Real vaqt rejimida
2-bosqich	Rouming operatori	1. Kelib tushgan EHF ushbu Nizom talablariga muvofiqligi tekshirilib, sotib oluvchiga uning operatori orqali yetkazish; 2. To'ldirilishida xatolar yoki kamchiliklar mavjudligi aniqlangan EHF qabul qilmasdan tegishli operator orqali uni shakllantirgan tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) yetkazib beruvchiga qaytarish.	Real vaqt rejimida
3-bosqich	Tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) sotib oluvchi	Kelib tushgan EHFni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash yoki sababi ko'rsatilgan holda rad etish.	Ixtiyoriy muddatda
4-bosqich	Elektron hisobvaraqa-faktura aylanish tizimi operatori	Tovarlarni sotib oluvchi tasdiqlagan EHFni rouming operatori orqali tovarlarni yetkazib beruvchiga yuborish.	EHF tovarlarni sotib oluvchi tomonidan tasdiqlangandan keyin ryeal vaqt rejimida
5-bosqich	Rouming operatori	EHF tovarlarni sotib oluvchi tomonidan tasdiqlangandan keyin unga QR-kod biriktirish.	Real vaqt rejimida

1-rasm. Elektron hisobvaraqa-fakturalarni shakllantirish, yuborish, tasdiqlash va ulardan foydalanish SXEMASI (Nizom, 2019)


Elektron hisobvaraqa-fakturalar aylanishining bosqichlari soliq ma'muriyatchiligi jarayonida shaffoflik va nazoratni ta'minlashga xizmat qiladi. Misol uchun, sotuvchi tomonidan EHFni shakllantirish va yuborishdan boshlab, rouming operatori orqali tasdiqlanishigacha bo'lgan jarayon real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Bu esa soliq organlariga moliyaviy operatsiyalarni tezkor kuzatish, noto'g'ri ma'lumotlar yoki firibgarlik holatlarini aniqlash va avtomatlashtirilgan tekshiruvlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Sotib oluvchi tomonidan EHFni tasdiqlash yoki rad etish mexanizmi soliq xavfi darajasini aniqlash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Tasdiqlangan EHF rouming operatori orqali sotuvchiga qaytariladi va unga QR-kod biriktiriladi, bu esa hujjatning haqiqiyliги va ishonchliligini kafolatlaydi. Shu tarzda, elektron hisobvaraqa-fakturalar orqali to'plangan ma'lumotlar soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyati, operatsiyalar hajmi va kontragentlar bilan munosabatlari bo'yicha avtomatik tahlil qilinadi, risk indikatorlarini shakllantirishga asos bo'ladi.

Natijada ushbu sxema soliq organlariga yuqori xavfli operatsiyalarni erta aniqlash, soliq auditini samarali yo'naltirish va o'rta yoki past xavfli subyektlarga nisbatan ma'muriy

choralarni optimallashtirish imkonini beradi. Elektron hisobvara-q-fakturalar tizimi soliq xavfini baholash, potentsial qonunbuzarliklarni kamaytirish va soliq tushumlarini oshirish bo'yicha markaziy vosita sifatida namoyon bo'ladi, shuningdek, riskka asoslangan nazorat tizimining uzviy elementi hisoblanadi.

Soliq ma'muriyatchiligida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, xususan elektron hisob-fakturalar (EHF) tizimi, nafaqat soliq organlari uchun, balki soliq to'lovchilar uchun ham sezilarli afzalliklarni yaratadi (1-rasm).



2-rasm. Elektron hisob-fakturalarning soliq to'lovchilar uchun asosiy afzalliklari

Manba: muallif tomonidan tadqiqot materiallari asosida tuzilgan.

Elektron hisob-fakturalarning soliq to'lovchilar uchun asosiy afzalliklari bir nechta jihatdan sezilarli. Birinchidan, EHF an'anaviy qog'ozli hisobvara-q-fakturalarni tayyorlashda sarflanadigan moddiy vositalar va inson resurslarini tejash imkonini beradi. Bu biznes subyektlari uchun moliyaviy va operatsion xarajatlarni kamaytiradi, shuningdek, ish jarayonlarini soddalashtiradi.

Ikkinchidan, elektron hisobvara-q-fakturalar qulay va oson yuritiladi. Ular raqamli platformada saqlanishi tufayli tezkor qidiruv, saqlash va tahlil qilish imkoniyatini yaratadi, bu esa korxonalarga moliyaviy oqimlarni aniq kuzatish va hisob-kitoblarni samarali boshqarishga yordam beradi.

Uchinchidan, EHF tizimi QQS hisoblash bilan bog'liq xatoliklarni oldini oladi. Avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar va real vaqt rejimidagi ma'lumotlar soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini to'g'ri bajarish va soliq qonunchiligiga rioya qilishda ishonchli vosita bo'ladi. Shu bilan birga, QQS bilan bog'liq xisobotlarni yuborish jarayoni ham avtomatlashtiriladi, bu esa byurokratik jarayonlarni qisqartiradi va soliq organlariga taqdim etiladigan ma'lumotlarning shaffofligini oshiradi.

Natijada, elektron hisob-fakturalar soliq to'lovchilarga nafaqat moliyaviy va vaqt resurslarini tejash, balki soliq xavfini kamaytirish va biznes jarayonlarini samarali boshqarish imkonini beruvchi samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, elektron hisob-fakturalar (EHF) tizimi O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligida samarali raqamli vosita sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

EHF orqali to'plangan ma'lumotlar soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini segmentlash, yirik soliq to'lovchilarni aniqlash va soliq xavfini baholash imkonini beradi. Soliq xavfi mezonlariga asoslangan ballar tizimi, real moliyaviy oqimlar bilan uyg'unlashgan holda, subyektiv baholash ehtimolini kamaytiradi va soliq nazoratining aniqligi hamda samaradorligini oshiradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, e-hisob-fakturalar tizimi nafaqat soliq organlari uchun, balki soliq to'lovchilar uchun ham sezilarli afzalliklar yaratadi. Xususan, u moddiy va inson resurslarini tejash, hisobvaraq-fakturalarni qulay yuritish, QQS hisoblashdagi xatolarni kamaytirish va soliq xisobotlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Natijada, soliq to'lovchilar faoliyati samaraliroq va soliq qonunchiligiga rioya qilish darajasi oshadi.

Soliq organlari EHF tizimini yanada rivojlantirish va integratsiyani kengaytirish orqali soliq xavfini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirishi mumkin.

Soliq to'lovchilar uchun tizimni ishlatish bo'yicha qo'llanmalar, treninglar va avtomatlashtirilgan yechimlar ishlab chiqilishi tavsiya etiladi. Bu xatoliklarni kamaytirish va ma'lumotlarni tezkor tekshirish imkonini oshiradi.

Risk indikatorlarini va soliq xavfi mezonlarini doimiy tahlil qilib, real vaqt rejimida yangilash orqali soliq nazorati yanada samarali amalga oshiriladi.

EHF ma'lumotlaridan foydalanish orqali soliq auditi va byurokratik jarayonlarni optimallashtirish, shu bilan birga, soliq tushumlarini barqaror oshirish mumkin.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, e-hisob-fakturalar tizimi soliq xavfini aniqlash, riskka asoslangan nazoratni amalga oshirish va soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishda markaziy instrument sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, soliq to'lovchilar uchun ham amaliy qulayliklar va moliyaviy samaradorlik yaratadi.

Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

Aipova, I. (2024). QQS islohotlari va amaliyotdagi muammolar. *Green Eco Journal*. <https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/5289>.

Caillahua, H. D. A., Chavez Diaz, J. M., Romero Vela, S. L., & Aburto Palomino, Y. (2025). Literature review on e-invoicing and tax compliance. *Universidad Ciencia Y Tecnología Journal*. <https://uctunexpo.autanabooks.com/index.php/uct/article/view/998>.

Farmon (2025) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi sohasida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish chora-tadbirlari" to'g'risida 04.09.2025 yildagi PF-153-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7716359>.

Hesami, S., Jenkins, H., & Jenkins, G. P. (2024). Digital transformation of tax administration and compliance: A systematic review. *Digital Government: Research and Practice*. https://cricworld.com/publications/qed_dp_4621.pdf.

Kotsogiannis, C., Salvadori, L., Karangwa, J., & Murasi, I. (2024). E-invoicing, tax audits and VAT compliance. *Journal of Development Economics*. https://www.researchgate.net/publication/385685233_E-invoicing_tax_audits_and_VAT_compliance.

Nizom (2019) Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi 522-son qaroriga muvofiq O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraq-fakturalardan foydalanish tartibi to'g'risida NIZOM. <https://lex.uz/docs/-4386769>.

Nizom (2025) Vazirlar Mahkamasining "Elektron hisobvaraq-fakturalarning xavf darajasini aniqlash va ularda aks ettirilgan operatsiyalar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomi (830-son, 26.12.2025-y.) <https://gov.uz/oz/advice/784/document/4496>

Qaror (2021) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish" to'g'risidagi 07.01.2021 yildagi 1-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5206072>.

Raxmonqulov, U. (2024). Soliq ma'muriyiligi zamonaviy texnologiyalar. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot Journal*. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/6881>.